

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA YOZUV DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH

**Ma’suma Zokirova Qahramon qizi**

Namangan davlat universiteti

E-mail: [masumazokirova5@gmail.com](mailto:masumazokirova5@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang‘ich ta’limning 1-sinf o‘quvchilari uchun Yozuv darslarini tashkil etish usullari, o‘quvchilarga sifatli ta’limni joriy etish va Yozuv darslarini o‘quvchiga turli metod va usullar orqali tushuntirish haqida.

**Kalit so‘zlar:** metodologiya, metod, dars, husnixat, mashq.

## EFFECTIVE ORGANIZATION OF WRITING LESSONS IN PRIMARY SCHOOL

**Abstract:** This article is aimed at organizing writing lessons for the first year of pupils in the primary education and introducing quality education for pupils and explaining writing lessons to the pupils different methods and ways.

**Key words:** methodology, method, lesson, handwriting, exercise.

Boshlang‘ich ta’lim uzluksiz ta’limning poydevori hisoblanganligi bois, 1-4-sinf o‘quvchilariga sifatli ta’lim berish mas’uliyatli vazifadir. “O‘qituvchi eng mas’ul vazifani ado etadi-u insonni shakllantiradi”[1]. Bu mas’uliyatli vazifani amalga oshirish uchun esa bugungi kunda bizga “qurollangan” ustoz-murabbiylar, ya’ni o‘z sohasining ustasi, barcha sohalardan chuqur bilimga ega, chet tillarini bilgan, kompyuter texnologiyalaridan xabardor zamonaviy o‘qituvchilar kerak. Darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil eta olish, ayniqsa, juda muhimdir, boisi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘sib-o‘zgarib boradigan yoshda bo‘ladi, ularga ta’lim berishda bir xil qolipdan foydalanish samara bermaydi.

Jumladan, yozuv darslarini samarali tashkil etish. Bizga ma'lumki, Yozuv darsi 1-sinf o'quvchilari uchun o'tiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixat bilan yozishga o'rgatish metodikasi ularda aniq va tez yoza olish imkonini yaratishi lozim. Bu kabi talablarni amalga oshirish uchun 1-sinf o'quvchilariga yozuvning gigiyenik shartlarini tushuntirish kerak. Ular quyidagilar:

– avvalambor o'quvchilarni partada to'g'ri o'tirishga o'rgatish. Sinf xonalaridagi “To'g'ri o'tir” plakati yordamida o'quvchilarni to'g'ri o'tirishga o'rgatish mumkin. Undan tashqari multimedialar orqali partada noto'g'ri o'tirishning salbiy oqibatlarini ko'rsatib berish ham bolani to'g'ri o'tirishga undaydi. O'qituvchi doimo o'quvchining fiziologiyasini nazorat qilib borishi lozim, o'quvchining oyoqlari juft holatda butun oyoq kaflari bilan polga tegib turishi uning diqqati bo'linishini oldini oladi hamda sog'lom o'sishini ta'minlaydi;

– yozuv qurollaridan to'g'ri foydalana olish. Ruchkani to'g'ri ushlashga o'rgatish, yozuv daftarlariga husnixat bilan yozish, yozuv talablariga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish;

– yozuv qoidalariga qat'iy amal qilgan holda yozish. O'qituvchi dars boshlashdan oldin husnixat bilan yozish qoidalarini o'quvchilarga eslatib o'tishi lozim. Bunda hech bir o'quvchini befarq qoldirmasligi, o'quvchini husnixat bilan yozayotganini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak.

– o'qituvchi yozuv darsini yuqoridagi gigiyenik talablarga asoslanib boshlasa, o'quvchilarda husnixat bilan yozish ko'nikmasi shakllanadi. Yozuv darslarini yangi, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish juda muhim hisoblanadi. Misol uchun: O'quvchilarga Oo harfini o'rgatish kerak bo'lsin. O'qituvchi o'quvchilarda Oo tovushi haqida tushuncha uyg'otish uchun bu tovush ishtirok etgan topishmoqlardan aytadi:

*Bir parcha patir Olamga tatir. (Oy)*

*Choyga solsam erib ketar,*

*Lazzatini berib ketar (Oqqand)*

*O'xshar qovun-tarvuzga,*

*Sip-silliq kiygan to‘ni.*

*Ichi olov, zar rangda,*

*Pishirib yeysan uni.*

*(Oshqovoq)[2]*

O‘qituvchi doskaga topishmoq javoblari yozilgan ko‘rgazmalar qo‘yib, javobini topish so‘raladi. Oo harfini havoda yozadi, o‘quvchilar ham havoda takrorlashadi, o‘quvchilarni yana ham oson tushunishlari uchun oynaga qarab talaffuz qildiramiz, bunda og‘iz misoli O shaklida ko‘rinadi, va nihoyat o‘quvchilar Oo harfini yozadilar. Dars mobaynida o‘quvchilarni diqqatini to‘plash uchun turli mashqlar bajartirish, metodlar qo‘llash mumkin, masalan: o‘qituvchi o‘quvchilarni diqqatini jamlash uchun ularni tik turg‘izib, o‘qituvchining aytgan amallarini bajarishini so‘raydi:

bu daftar, bu kitob, bu ruchka va hokazo, o‘quvchilar ularni o‘qituvchi ko‘rsatgani singari ko‘rsatadilar, o‘qituvchi atayin daftarni o‘rniga gulni ko‘rsatadi, hushyor o‘quvchilar daftarni, yoki aksincha diqqatini bir joyga to‘play olmagan o‘quvchilar esa gulni ko‘rsatib yuborishadi. Bu mashqdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarni darsga to‘laqonli jalb etish, diqqatini jamlash hamda darsga yanada qiziqishlarini orttirishdan iborat.

– o‘quvchilarga savol berishdan oldin “Qani topingchi bolalar?” deya savol berib keyin topishmoq yoki savol berish ularni diqqatini bir joyga to‘plashning eng yaxshi yo‘li hisoblanadi.

– o‘qituvchi mavzuni mustahkamlash uchun o‘quvchilarga qizil va ko‘k rangli doiralar hosil qilishlarini buyuradi hamda ko‘k doiralar ichiga undosh harflarni, qizil doiralar ichiga unli harflarni yozib, bo‘g‘in hosil qildiradi. O‘quvchilar hosil qilgan bo‘g‘in yoki so‘zlarni yozuv taxtasi(doska)ga yopishtiradilar. Bu mashq orqali ularda unli va undosh harflarni ajrata olish, so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘la olish, bo‘gin va bo‘g‘inlardan so‘z hosil qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Umuman olganda yozuv darslarida yuqoridagi metod, usullardan ko‘plab foydalanish mumkin, o‘quvchilarda faqat harfni yoza olish qobiliyatini

shakllantirishdan tashqari ularda ijodkorlik, topqirlik, zehnlilik, ziyraklik qobiliyatlarini ham shakllantirib borish kerak.

O‘quvchilarda ko‘nikma va malakalarni shakllantirish mashqlar va amaliy ishlarni uzluksiz olib borishdir[3]. Har bir mashqdan so‘ng o‘quvchilarni rag‘batlantirib borishni o‘qituvchi aslo yodidan ko‘tarmasligi kerak. Dars qanchalik samarali tashkil etilsa, o‘quvchilar a‘lo o‘zlashtiradilar va kelajaklari uchun poydevor quradilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1.В. Воронцов композицияси. Sharifa Abdurazzoqova tarjimasini. – T: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989 yil.123-bet.
2. G‘afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G.. 1-sinf O‘qish kitobi. – T: Sharq,2017.
3. Mavlonova R., Vohidova N., Raxmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T.: Fan va texnologiya, 2010. 201- bet.